

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
QO'SHMA TA'LIM DASTURLARINI MUVOFIQLASHTIRISH
BO'LIMI



XALQARO ILMIY- AMALIY ANJUMAN

**Transmilliy qo'shma ta'lim dasturlarining
rivojlanishi: O'zDJTU tajribasi va xalqaro
sifat kafolati tizimlari bo'yicha ilmiy-amaliy
yondashuvlar**

Toshkent 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
QO‘SHMA TA’LIM DASTURLARINI MUVOFIQLASHTIRISH
BO‘LIMI

“TRANSMILLIY QO‘SHMA TA’LIM DASTURLARINING
RIVOJLANISHI: O‘ZDJTU TAJRIBASI VA XALQARO SIFAT
KAFOLATI TIZIMLARI BO‘YICHA ILMIY-AMALIY
YONDASHUVLAR”

NOMLI I XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda xalqaro va Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to'g'risida" buyrug'i asosida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi tomonidan 2026-yil 19-fevral sanasida tashkil etilgan **"Transmilliy qo'shma ta'lim dasturlarining rivojlanishi: O'zDJTU tajribasi va xalqaro sifat kafolati tizimlari bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar"** nomli I xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plamidan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlar, talabalar foydalanishi mumkin.

Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Mas'ul muharrir:

Rashidova Feruza Musayevna

Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Tuxliyeva Gavxar Nurislomovna

Ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori

Tahrir hay'ati a'zolari:

Shakirov Ilyas Raximjanovich – O'zbekiston Milliy Universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida v.b. dotsenti

Tursunova Shahnoza Narqulovna – Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi o'qituvchisi

Umurzakova Dilnoza Davranbekovna – Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi o'qituvchi-stajori

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro ishlar bo‘yicha prorektori Nasirov Abduraxim Abdimutalipovichning 19-fevral – Qo‘shma ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumandagi nutqi

Hurmatli xalqaro hamkorlar, aziz mehmonlar, hurmatli professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilar!

Bugun sizlarni O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida o‘tkazilayotgan xalqaro konferensiyada qutlashdan mamnunmiz. Bugungi tadbirimiz zamonaviy oliy ta’lim uchun juda dolzarb bo‘lgan masalaga — transmilliy qo‘shma ta’lim dasturlarini rivojlantirish va ularda ta’lim sifatini ta’minlashning ilmiy-amaliy yondashuvlariga bag‘ishlangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi xalqaro maydonda ochiqlik, akademik mobillik va institutsional hamkorlik yo‘lidan qat’iy harakat qilmoqda. Qo‘shma ta’lim dasturlari bu jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ular orqali biz nafaqat bilim almashamiz, balki ta’lim mazmuni, boshqaruv va sifatni ta’minlash borasida yangi tajribalarni ham joriy etib boryapmiz.

Shu bilan birga, qo‘shma dasturlarning barqarorligi va samaradorligi, avvalo, sifatni ta’minlash mexanizmlariga bog‘liq. Bugun sifat masalasi faqat nazorat yoki formal talab sifatida emas, balki institutsional rivojlanish va xalqaro integratsiyaning asosiy sharti sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti uchun transmilliy qo‘shma ta’lim dasturlari — bu faqat hamkorlik shakli emas, balki ta’limni xalqaro standartlar asosida tashkil etishga qaratilgan strategik yo‘nalishdir. Shu ma’noda, universitet qoshidagi Qo‘shma ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo‘limi tajribasi ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar bo‘yicha o‘zaro fikr almashish imkonini beradi.

Bugungi anjuman aynan shu masalalarni muhokama qilish, turli institutsional tajribalarni taqqoslash va ilmiy-amaliy yondashuvlarni birgalikda ko‘rib chiqish uchun muhim maydon hisoblanadi. Ishonamanki, bugungi muhokamalar nafaqat universitetlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, balki ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha umumiy qarashlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Barcha ishtirokchilarga samarali ish, mazmunli muhokamalar va yangi ilmiy-amaliy g‘oyalar tilayman. Konferensiyamiz ta’lim sifati va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘lishiga ishonaman.

E’tiboringiz uchun rahmat!